

ALISHER NAVOIYNING “MASNAVIY”SI - TURKIY NOMANING BETAKROR NAMUNASI

Nafisa Rahmanova

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada masnaviyning lirik va epik turlari, Alisher Navoiyning masnaviy shaklida Sayyid Hasan Ardasher ga yozgan maktubining tarixi, bu masnaviyning o'zbek adabiyotida o'rganilishi haqida so'z ketadi. Masnaviy hamd, na't, Sayyid Hasan Ardasher ta'rifi, shoirning yaqinlarini ogohlantirmay shoshilinch Samarqandga ketishining sabablari va xulosa kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Baytlarni sharhlash orqali masnaviy atrofidagi bahsli masalalarga oydinlik kiritilgan, shoirning she'riy noma yozishdagi poetik mahoratiga alohida e'tibor berilgan. Navoiyning zamonasidagi siyosiy voqealarga, she'riyat, tariqat, hol, jazba kabi masalalarga munosabati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lirik masnaviy, epik masnaviy, hamd, na't, vatanni tashlab ketish sabablari, tariqat, hol, jazba.

ALISHER NAVOI'S “MASNAVIY” IS A UNIQUE EXAMPLE OF A TURKISH NOMA (EPISTOLARY)

ABSTRACT

This paper analyses the lyrical and epic types of masnavi, the history of Alisher Navoi's letter to Sayyid Hasan Ardasher, the study of this masnavi in Uzbek literature. Masnavi includes some parts like Hamd, Na't, Sayyid Hasan Ardasher's description, the reasons for the poet's hasty departure to Samarkand without warning his relatives, and the conclusion. By interpreting the verses, the controversial issues regarding the masnavi are clarified, special attention is paid to the poetic skill of the poet in writing a poetic noma. Navoi's attitude to some issues such as political events of his time, poetry, hol, jazba, were analyzed.

Keywords: lyrical masnavi, epic masnavi, hamd, na't, reasons for leaving the motherland, Sufizm, hol, jazba.